NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

UZSTAT



# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2021- yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra dastlabki ma’lumot*

Viloyat bo‘yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 335,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **7,8** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 221,2** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati **89,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi* **6 688,8** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **110,3 %)**, uyushmagan savdo tovar aylanmasi esa **424,9** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **141,9 %**) tashkil etdi.

** Uyushmagan savdo tovar aylanmasini qo‘shmagan holda*

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,** foizda




Yirik korxonalar 14,7

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari 80,2

Uyushmagan savdo 5,1

**Uyushmagan savdo,** mlrd. so‘m

**O‘sish sur’atlari,** foizda






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

### ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **33,3 %** ulush bilan **2 777,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Navoiy sh.**
**2 777,0**

**Karmana t.**
**1 413,7**

**Xatirchi t.**
**940,9**

**Qiziltepa t.**
**925,3**

**Zarafshon sh.**
**833,9**

**Navbahor t.**
**393,5**

**Uchquduq t.**
**390,7**

**Nurota t.**
**384,9**

**Konimex t.**
**220,8**

### ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **54,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Tomdi t.**
**54,3**



### UMUMIY MA’LUMOT

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 335,0** mlrd. so‘mni va 2020- yilning mos davriga nisbatan **107,8** % ni tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

| | Jami, mlrd. so‘m | 2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxona-lar, mlrd. so‘m | 2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **8 335,0** | **107,8** | **1 221,2** | **89,5** | **7 113,8** | **111,7** |
| Navoiy sh. | 2 777,0 | 104,8 | 869,1 | 69,6 | 1 907,9 | 136,1 |
| Zarafshon sh. | 833,9 | 113,1 | 31,3 | 2,1 b | 802,6 | 111,1 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Konimex | 220,8 | 111,5 | 4,9 | 70,6 | 215,9 | 113,0 |
| Qiziltepa | 925,3 | 107,8 | 15,6 | 123,5 | 909,7 | 107,6 |
| Navbahor | 393,5 | 100,7 | 50,4 | 13,6 b | 343,1 | 88,6 |
| Karmana | 1 413,7 | 110,4 | 227,7 | 5,2 b | 1 186,0 | 95,9 |
| Nurota | 384,9 | 110,9 | 5,2 | 103,0 | 379,7 | 111,1 |
| Tomdi | 54,3 | 104,2 | 0,8 | 120,8 | 53,5 | 104,0 |
| Uchquduq | 390,7 | 109,1 | 3,4 | 142,8 | 387,3 | 108,9 |
| Xatirchi | 940,9 | 109,6 | 12,8 | 50,3 | 928,1 | 111,4 |

2020- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi o‘sishining yuqori ko‘rsatkichlari Zarafshon shahrida (**113,1** %), Konimex (**111,5** %) va Nurota (**110,9 %**) tumanlarida qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### **Yirik korxonalar ,** foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida **1 221,2** mlrd. so‘mni va 2020- yilning mos davriga nisbatan **89,5** foizni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining **14,7** foiz ulushiga to‘g‘ri keldi.









**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda

12,8 — Navbahor t. 50,4
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m

16,1 — Karmana t. 227,7
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m

31,3 — Navoiy sh. 869,1
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, **7 113,8** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **11,7** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,3** % ni tashkil etdi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda**




**Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m**

Xatirchi t. 928,1 — 13,0 %

Karmana t. 1 186,0 — 16,7 %

Navoiy sh. 1 907,9 — 26,8 %

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda**



13,0

16,7

26,8



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga koʻra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi boʻyicha Uchquduq (**99,1 %**), Xatirchi (**98,6 %**), Nurota (**98,6** %), Tomdi (**98,6**%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **14,7** % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahrida (**31,3** %), Karmana (**16,1 %)** va Navbahor (**12,8** %) tumanlarida kuzatildi.



# AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2021- yilning yanvar-noyabr oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **8 163,5** ming so‘mni (2020- yilning mos davriga nisbatan **5,9** % ga oshdi) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**18 738,1** ming so‘m), Karmana (**10 899,7** ming so‘m) va Uchquduq (**10 309,3** ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Eng yuqori hajm,** ming so‘m

**Navoiy sh. – 18 738,1**

**Karmana t. – 10 899,7**

**Uchquduq t. – 10 309,3**

**Eng quyi hajm,** ming so‘m

**Nurota t. – 4 064,9**

**Tomdi t.– 3 574,1**

**Navbahor t. – 3 406,7**

| | **Hajm, ming so‘m** | **2020- yil-ning mos davriga nisbatan,** foizda |
|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **8 163,5** | **105,9** |
| Navoiy sh. | 18 738,1 | 102,6 |
| Zarafshon sh. | 9 786,9 | 111,9 |
| *tumanlar:* | | |
| Konimex | 6 066,6 | 109,7 |
| Qiziltepa | 5 973,3 | 106,2 |
| Navbahor | 3 406,7 | 99,0 |
| Karmana | 10 899,7 | 107,7 |
| Nurota | 4 064,9 | 109,1 |
| Tomdi | 3 574,1 | 101,5 |
| Uchquduq | 10 309,3 | 107,7 |
| Xatirchi | 4 628,0 | 107,9 |



# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo‘yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **424,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **41,9** % ga ko‘paydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **259,5** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **132,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **165,4** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **159,3**%) tashkil etdi.

## Tovar aylanmasi ulushi va hajmi




### Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda




### Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **259,5** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **165,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

** Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda*

** Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari*

| | **Jami, mlrd. so‘m** | **2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda** | **Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m** | **2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda** | **Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m** | **2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **424,9** | **141,9** | **259,5** | **132,6** | **165,4** | **159,3** |
| Navoiy sh. | 116,6 | 158,5 | 116,6 | 158,5 | - | - |
| Zarafshon sh. | 1,6 | 14,5 | 1,6 | 14,5 | - | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Konimex | 15,9 | 183,7 | 6,2 | 120,9 | 9,7 | 275,7 |
| Qiziltepa | 41,5 | 133,7 | 25,5 | 121,3 | 16,0 | 159,8 |
| Navbahor | 2,1 | 104,3 | 2,1 | 104,3 | - | - |
| Karmana | 106,2 | 144,7 | 10,3 | 165,4 | 95,9 | 142,8 |
| Nurota | 22,5 | 156,3 | 7,4 | 120,1 | 15,1 | 183,7 |
| Tomdi | 2,7 | 110,1 | 2,7 | 110,1 | - | - |
| Uchquduq | 6,2 | 153,4 | 6,2 | 153,4 | - | - |
| Xatirchi | 109,6 | 138,5 | 80,9 | 125,9 | 28,7 | 192,8 |

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **259,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**174,1** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so‘m

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **165,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **129,7** mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar **33,3** mlrd. so‘mni, ot va eshaklar **1,0** mlrd. so‘mni, parranda, quyonlar va qushlar **1,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,4 %** ni tashkil etib, **202,0** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **85,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **202,0** | **117,0** | **29,3** | **191,5** | **172,7** | **109,8** |
| Navoiy sh. | 73,4 | 109,6 | 10,6 | 99,3 | 62,8 | 111,5 |
| Zarafshon sh. | 28,6 | 101,8 | 5,4 | 121,7 | 23,2 | 98,0 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Konimex | 3,5 | 107,6 | - | - | 3,5 | 107,6 |
| Qiziltepa | 13,2 | 116,8 | - | - | 13,2 | 116,8 |
| Navbahor | 31,5 | 193,4 | 13,1 | - | 18,4 | 112,7 |
| Karmana | 27,2 | 127,8 | 0,2 | 77,3 | 27,0 | 128,4 |
| Nurota | 4,1 | 119,7 | - | - | 4,1 | 119,7 |
| Tomdi | 0,7 | 105,2 | - | - | 0,7 | 105,2 |
| Uchquduq | 6,1 | 73,2 | - | - | 6,1 | 73,2 |
| Xatirchi | 13,7 | 105,2 | - | - | 13,7 | 105,2 |

# MULKCHILIK SHAKLI BO‘YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat mulki bo‘lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **6,2 %** dan **5,3** % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **202,0** mlrd. so‘m (o‘sish sur’ati **117,0** %) va mulkchilik shakllari bo‘yicha **191,3** mlrd. so‘m nodavlat mulkka (**94,7** %) hamda **10,6** mlrd. so‘m (**5,3** %) davlat mulkiga to‘g‘ri keldi.

| | **Jami, mlrd. so‘m** | **Ulushi, foizda** | **Nodavlat mulk, mlrd. so‘m** | **Ulushi, foizda** | **Davlat mulki, mln. so‘m** | **Ulushi, foizda** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **202,0** | **100,0** | **191,3** | **94,7** | **10,6** | **5,3** |
| Navoiy sh. | 73,4 | 36,3 | 62,7 | 85,5 | 10,6 | 14,5 |
| Zarafshon sh. | 28,6 | 14,1 | 28,6 | 100,0 | - | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Karmana | 27,2 | 13,5 | 27,2 | 100,0 | - | - |
| Konimex | 3,5 | 1,7 | 3,5 | 100,0 | - | - |
| Qiziltepa | 13,2 | 6,5 | 13,2 | 100,0 | - | - |
| Navbahor | 31,5 | 15,6 | 31,5 | 100,0 | - | - |
| Nurota | 4,1 | 2,0 | 4,1 | 100,0 | - | - |
| Tomdi | 0,7 | 0,4 | 0,7 | 100,0 | - | - |
| Uchquduq | 6,1 | 3,0 | 6,1 | 100,0 | - | - |
| Xatirchi | 13,7 | 6,8 | 13,7 | 100,0 | - | - |

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo‘yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 748,1** mlrd. so‘mni, 2020- yilning mos davriga nisbatan **96,9** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi **369,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




## Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




## Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da






# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlari Nurota (**162,4** %), Konimex (**152,9** %) va Navbahor (**143,1** %) tumanlarida kuzatildi.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2020-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxona-lar, mlrd. so‘m | 2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m | 2020- yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **1 748,1** | **96,9** | **369,9** | **72,7** | **1 378,2** | **106,4** |
| Navoiy sh. | 897,7 | 92,9 | 274,6 | 59,0 | 623,1 | 124,5 |
| Zarafshon sh. | 78,7 | 133,5 | - | - | 78,7 | 133,5 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Konimex | 12,0 | 152,9 | 1,4 | 59,5 | 10,6 | 190,5 |
| Qiziltepa | 126,2 | 114,7 | - | - | 126,2 | 114,7 |
| Navbahor | 88,1 | 143,1 | 67,0 | 204,8 | 21,1 | 73,1 |
| Karmana | 446,1 | 99,6 | 26,9 | 323,5 | 419,2 | 95,4 |
| Nurota | 34,8 | 162,4 | - | - | 34,8 | 162,4 |
| Tomdi | 2,2 | 19,5 | - | - | 2,2 | 19,5 |
| Uchquduq | 16,5 | 45,0 | - | - | 16,5 | 45,0 |
| Xatirchi | 45,8 | 55,8 | - | - | 45,8 | 55,8 |

# MULKCHILIK SHAKLI BO‘YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So‘ngi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o‘rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1** % ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlari bo‘yicha ulgurji savdo aylanmasi **1 748,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 745,6** mlrd. so‘mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **2,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo‘yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkiga tegishlisi faqatgina Karmana tumanida (**0,6** %), saqlanib qolinganligini ko‘rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to‘liq nodavlat mulkka tegishli.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**
**Tashqi iqtisodiy faoliyat va**
**savdo statistikasi bo`limi**
**Tel.:(99879) 223-50-43**